



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HARAKAT TARZI SHAKLLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18477817>

Normurodova Nigina

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
LINGVISTIKA (INGLIZ TILI) YO'NALISHI MAGISTRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi harakat tarzi shakllarining leksik-semantik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Harakat tarzi shakllarining tildagi ifodasini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi, chunki har bir til sohiblarining harakat, yo'nalish, harakatning amalga oshirilish tarzi, shundan kelib chiqqan holda uning davomiyligi, takroriylikiga nisbatan ifoda shakllari o'ziga xosdir. Har ikki tildan olinuvchi misollar yordamida ularning chog'ishtirma lingvistik tahlili amalga oshiriladi.*

Kalit so'zlar: *harakat tarzi shakli, yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l, frazal fe'l, prepozitsional yuklama, yo'nalish va usul (manner) farqlari.*

Annotation. *This article discusses the lexical-semantic characteristics of action forms in English and Uzbek. The study of the expression of action forms in the language is one of the important issues, since the forms of expression of each language in relation to the action, direction, manner of implementation of the action, and therefore, its duration and repetition are unique. A comparative linguistic analysis of them is carried out using examples from both languages.*

Keywords: *action form, leading verb, auxiliary verb, phrasal verb, prepositional loading, direction and manner distinctions.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лексико-семантические характеристики форм действия в английском и узбекском языках. Изучение выражения форм действия в этих языках является одним из важных вопросов, поскольку формы выражения каждого языка в отношении действия, направления, способа его осуществления, а следовательно, его длительности и повторения, уникальны. Проводится сравнительный лингвистический анализ этих форм на примерах из обоих языков.*

Ключевые слова: *форма действия, вводный глагол, вспомогательный глагол, фразовый глагол, предложная частица, различия в направлении и способе действия.*



KIRISH

Harakat tarzi shakllari ifodalovchi modellar inson muloqotining markazida turadi. Bu modellar uchun uchun xos bo'lgan universal funksiyalar mavjud: fazoviy yo'nalish, trayektoriyalar, takroriylik, davomiylik, maqsad va harakat usuli haqida denotativ va konnotativ ma'noni ifodalash. Mazkur universal funksiyalarga qaramay, har bir tilda ularning leksik birliklardagi akslanishi o'ziga xosdir. Ingliz va o'zbek tillari ikki til tizimiga, ya'ni german va turkiy tillar oilasiga mansubligi ma'lum. "Harakat tarzi paradigmasi murakkab morfologik shakllar sistemasi sifatida turkiy tillar so'z o'zgarishi tizimida alohida o'rin tutadi. O'zbek tilida harakat tarzi shakllari xalqimizga xos milliy mental xususiyatlarni ifodalash xususiyati bilan ham xarakterlidir. Bunda harakat tarzi shakllarining qanday strukturaga egaligi, shakllarning murakkablik darajasi, ya'ni shakllar zanjiri, shu bilan birga, pragmatik vaziyat bilan bog'liq voqelanadigan xususiyatlari muhim rol o'ynaydi" [Eshmirzayev, 2023]. Ingliz tili harakat tarzi shakllarining ifodasida asosan fe'l yuklamalari va predloglarga tayanadi, o'zbek tilida esa harakat tarzining turli nozik nuanslarini ifodalashda asosan agglyutativ morfologiya va fe'l hosilalaridan foydalaniladi.

Asosiy qism. Leksik semantika so'z ma'nolari hamda leksik birliklar, leksik elementlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi. So'zlarning semantik tushunchalarni uyg'otish

masalalari hamda so'zlarning turli kontekstlarda turli ma'nolarni tashish imkoniyatlari, kontekstlarda ma'nolarning qay tarzda o'zgarishi kabi masalalarni tadqiq etadi. Harakat tarzini ifodalovchi leksik birliklarning quyidagi komponentlarini leksik semantika qiymatlaydi:

- harakat usullari (o'tirish, turish, yurish, yugurish; sakrash);
- trayektoriya, yo'nalish (tirmashish, kirish, chiqish, tushish; ko'tarilish);
- markaziy nuqta, biror narsaga nisbatan harakat tarzi (o'tish, yaqinlashish; uzoqlashish);
- maqsad yoki niyat harakatlari (gaplashib oish uchun borish);

Shu o'rinda Talmining qo'zg'alish nuqtasi haqidagi qarashlarini keltirish mumkin. Talmiga ko'ra qo'zg'alish nuqtasi tarjima holati tushunchasidir. Tarjima holati (voqelik (event) bo'lib, unda jism (Figure) yo'nalish bo'ylab harakatlanadi) 4 komponentdan iborat sobit tuzilishga (tarjima tuzilishi) parchalanadi:

Jism (F): "boshqa obyektga nisbatan harakatlanuvchi yoki joylashgan deb hisoblangan obyekt." (F - figure)

Asos: "birinchi obyektga nisbatan harakatlanuvchi yoki joylashgan deb hisoblangan obyekt." (G - ground)

Yo'nalish: "bir obyektning boshqa obyektga nisbatan harakatlanuvchi yoki joylashgan deb hisoblangan munosabati." (D - direction)

Motiv: "bir obyektning boshqa obyektga nisbatan qanday holatda ekanligiga ko'ra harakatlanish yoki



joylashish holati” (M - motive) [Fortis, 2010].

Ingliz tilida harakat tarzi shakllari asosan frazal fe'llar yordamida ifodalanib, unda fe'l yuklamalari va predloglar asosiy o'rin egallaydi. Ingliz tili frazal fe'llardan keng ko'lamda foydalanadi. Harakat tarzi shakllarini ifodalashda fe'l + yuklama modeliga tayanuvchi ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tili ildizlarning morfologik modifikatsiyasi va yordamchi konstruksiyalarga tayanadi. O'zbek tilida yetakchi va ko'makchi fe'l nutq xususiyati, ifodalanadigan ma'noning tabiati, fe'llarning substansial xarakteri va semantik mohiyati hamda so'zlovchining kommunikativ intensiyasidan kelib chiqqan holda o'zaro uch xil shaklda birikishi ma'lum:

1) -(i)b shakli vositasida: aytib berdi, kelib qoldi;

2) -a/y shakli orqali: kela boshladi, o'qiy qol;

3) bevosita: aytib qo'ydim – aytdim-qo'ydim, ketib qoldi – ketdi-qoldi.

Harakat tarzi shaklining yetakchi fe'lining -(i)b ravishdosh shakli yordamida ko'makchi fe'l bilan qo'shiluvdan hosil bo'lgan morfologik shakli faol qo'llanuvchi bir ko'rinishidir. Masalan: ketib qolmoq (“kutilmaganda”), berib turmoq (“vaqtincha”), kutib turmoq (“davomli harakat”) kabi [Eshmirzayev, 2023].

Deylik, o'zbek tilidagi “sakrab tushdi” modeli tom ma'nodagi trayektorik harakat shakli pastga qarab yo'nalishni anglatishi bilan bir qatorda, ko'chma

ma'noda insonning ruhiy-emotsional holatini ham anglatadi. Ruhiy-emotsional ma'noda u ‘uchib tushmoq’ bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi, biroq tom ma'noda ‘sakrab tushmoq’ ‘uchib tushmoq’dan ma'no jihatdan keskin farq qiladi. To'g'ri, ularning har ikkisi ham trayektoriyasiga ko'ra pastga qarab yo'nalish bilan xoslanadi, biroq harakat tarzining denotativ ma'nosi butunlay farq qiladi. Ingliz tilida “jumped down” tom ma'nodagi ‘sakrab tushdi’ bilan muvofiq keladi. Jumped down o'zbek tilida aynan pastga sakradi tarzida ham ifodaladi. Biroq ruhiy-emotsional holatni ifodalovchi vosita sifatida qo'llanmaydi. Sakramoq (jump) va sakrab tushmoq (jump down) shakllarining davomiyligi, takroriyliigi, harakat usuli o'rtasida farqlar har ikki tilda ham aniq namoyon bo'ladi.

Bir martalik harakat tarzlari ingliz tilida fe'l + ot tarzida ifodalanish imkoniyatiga ega. Masalan, chekmoq (to smoke) va chekib olmoq (to have a smoke), ichmoq (to drink), ichib olmoq (to have a drink). To smoke (chekmoq); to drink (ichmoq) fe'llarining harakat tarzi umumiylikni ifodalasa, to have a smoke (chekib olmoq), to have a drink (ichib olmoq) kollokatsiyalarida harakat tarzining bir marta bajarilganligi namoyon bo'ladi. Bu kabi kollokatsiyalar o'zbek tilidagi shakllari biroz salbiy konnotatsiyalarga ega. Bu ba'zan o'zbek tilida ham namoyon bo'ladi. Masalan, suhbatlashmoq va suhbat qurmoq. Ingliz tilida to talk yoki to have a talk ma'nolari o'rtasida sezilarli farq keyingi jumladagi



harakatning bir marotabaligiga qaratilgan ishorani anglatishidadir. O'zbek tilida esa bu farq deyarli sezilmaydi. Suhbatlashib olmoq/gaplashib olmoq jumalari tinglovchi va so'zlovchining ongosti tushunchalarida suhbatning har ikki tomon uchun ma'lum bo'lgan aniq bir masala, muammo yoki mavzu doirasida ekanligi haqidagi axborotni uyg'otadi.

Shubhasiz, ingliz tilida harakat tarzining turli ko'rinishlarini ifoda etuvchu harakat fe'llari ko'plab tilshunos olimlar tomonidan sintaktik, semantik va kognitiv yondashuvlar orqali mufassal o'rganilgan. B. Levin [2] tabiatan yo'nalma harakat fe'llari (Verbs of Inherently Directed Motion) (to ascend - ko'tarilish, to tumble - yumalab yiqilish/ketish); harakat usuli fe'llari (Manner of Motion Verbs): (to roll - yumalash; to creep - sudralish/yurish), transport vositasidan foydalanish fe'llari (Verbs of Motion Using a Vehicle): (to bus - avtobusda, to jeep - jipda borish/kelish), vals fe'llarini (Waltz verbs): (to foxtrot - fokstrotga, to rumba - rumbaga, to waltz - valsqa raqsga tushmoq), quvish fe'llarini (Chase Verbs): (to track- izlash/iziga tushish, to follow- iziga tushish/ergashish) va hamrohlik fe'llarini (Accompany Verbs): (kuzatib borish/hamroh bo'lib borish/jo'r bo'lish, yo'l ko'rsatib birga borish) ajratadi. B. Levin tilga olgan bu harakat fe'llari guruhini tushuntirish uchun transport vositalarining harakatlari talab qilinadi [Holmatova, 2022].

O'zbek tilida transport vositasi orqali biror joyga borish yoki kelish harakatlari ingliz tilidagi kabi otning fe'lga ko'chirilishi orqali ifodalanishi imkoniyati mavjud emas. Masalan, ingliz tilida to bus, ya'ni avtobusda biror joyga borilmoq fe'li orqali ikki axborot ya'ni olib borish + avtobusda (boshqa transport vositasida emas) yetkaziladi, o'zbek tilida to bus avtobusda biror joyga borilish/ketilish tarzida leksikalizatsiyalanadi. Muloqot davomida o'zbek tilida olib borilish/ketilish harakati haqidagi axborot asosiy hisoblanib, ikkinchi axborot qanday olib borilish yoki olib ketilish to'g'risidagi savolga javob sifatida faqat ikkinchi suhbatdoshning qiziqishidan kelib chiqqan holatda yetkaziladi.

Xulosa. Ushbu chog'ishtirma tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'zbek va ingliz tillaridagi harakat shakllari leksik-semantik shakllanish jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz tili harakatni tarzi shaklini ifodalash uchun fe'llar va yuklamalar kombinatsiyasidan foydalanadi, harakat tarzi usuli va yo'nalishlarni ifodalashda, nol derivativ holatida otdan fe'lga ko'chib, harakatni ifodalash imkoniyatlari bilan ikki til o'zaro katta farqlarga ega. Aksincha, o'zbek tili so'zorti qo'shimchalari hamda asosiy+ko'makchi fe'l modeliga tayanib harakat tarzlarini ifodalaydi. Ingliz tilining frazeologik va predlog tuzilmalariga tayanishi uslub va idiomatik ifodalarni kuchaytiradi. O'zbek tilining morfologik tizimi yo'nalish va markaziy nuqtaga nisbatan harakat tarzi ifodasini



fe'llarning o'z mazmunida harakatni qanday konseptlashtirishdagi
mujassamlashtiradi. Bu farqlar tillarning tipologik xilma-xillikni aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eshmirzayev B.Dj. O'zbek tilida harakat tarzi shakllarining funksional-semantik xususiyati va tadqiqi. Лучшие интеллектуальные исследования, 2023. <http://web-journal.№9> (2), 50-53.
2. Fortis J-M. Space in Language. - Leipzig, 2010. - 34 p.
3. Talmy, L. (1985). Lexicalization Patterns: Semantic Structure in Lexical Forms.
4. Slobin, D. I. (2004). The many ways to search for a frog: Linguistic typology and the expression of motion events.
5. Dixon, R. M. W. (2004). The Grammar of English Phrasal Verbs.
6. Ergin, M. (2010). Movement Verbs in Turkic Languages.
7. Cross-linguistic Corpora of English and Uzbek motion verbs (institutional databases).
8. Holmatova M.O. English motion verbs and their semantic features. Scientific progress, 2023. <http://sjifactor.com/passport.№3> (6), 71-73